Pienkowskining(2018) davlat qarzi va qarzning strukturaviy tuzilishiga bag'ishlangan ilmiy ishida davlat qarzlarining barcha uchun birday qabul qilish mumkin bo'lgan maksimal chegarasi mavjud emasligi, aksincha bu ko'rsatkichlar rivojlangan, rivojlanayotgan va quyi darajada rivojlangan davlatlar uchun bir biridan farq qilishini isbotlaydi.

Tashqi qarzni boshqarish mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash bo'yicha asosiy strategiya va siyosatlarini o'z ichiga oladi. Tashqi qarzni boshqarishning asosiy elementlari sifatida davlat qarzi barqarorligi tahlili, davlatning qarzi olish siyosatini aniq yo'nalishlarini belgilab olish hamda davlat qarzini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish kabilar hisoblanadi.

Pattillo va boshqalarning fikriga (2002) ko'ra, iqtisodiy o'sish faqat tashqi qarzi miqdorining ko'tarilishi bilan ijobiy bog'liqligi bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Qarzlarga xizmat ko'rsatish xarajatlarining oshishi natijasida iqtisodiyotning taqchilligini o'stirishi mumkin. Shuningdek, tashqi qarzning haddan tashqari ko'pligi iqtisodiyotni zarbalar va moliyaviy inqirozlarga moyil qilishi mumkin.

Qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlari va qarzning umumiy miqdorlari belgilangan chegaraviy ko'rsatkichlaridan oshib ketishi, davlat uchun foydali loyihalar uchun mavjud moliyaviy resurslarni cheklaydi, bu esa markazlashtirilgan investitsiyalarga to'sqinlik qiladi hamda iqtisodiy rivojlanishni cheklaydi (Ada va boshqalar., 2016; Fandamu va Phiri, 2017).

Tashqi qarzni boshqarish unga xizmat ko'rsatish doirasida mamlakat qarzlarining vaqtinchalik holatini aniqlash va tahlil qilish, xizmat ko'rsatish uchun yetarli miqdorda sof eksportdan tushumlarni prognozlashtirish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yangi tashqi qarzi miqdorlari va boshqa qarzga bog'liq risklarni baholashni o'z ichiga oladi.

Tashqi qarzni boshqarishda ma'lum bir konvertatsiya usullaridan foydalanish mumkin. Ya'ni ushbu jarayon valyutalarning konvertatsiyasi yoki foizlarning qat'iy foiz stavkasidan o'zgaruvchan foizli qarzga o'zgartirilishi nazarda tutiladi. Shuningdek, qarzni konvertatsiya qilish qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan valyuta kursining o'zgarishi va foiz stavkalarining o'zgarishi kabi risklarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Quyidagi konvertatsiya usullari farqlanadi:

- majburiy konvertatsiya – qarzi beruvchi eski qarzi obligatsiyalarini pasaytirilgan foiz stavkasida yangilariga almashtirishi kerak.

- ixtiyoriy konvertatsiya – kreditor yangi shartlarga moslashish huquqiga ega yoki pullarini qaytarishi mumkin;

- qo'shimcha konvertatsiya – kreditor kredit shartlarini o'zgartirishga rozi bo'lishi mumkin.

Tashqi qarzi milliy iqtisodiyot uchun riski yuqoridir, chunki u qarzning o'zi va undan foizlarni to'lashda qimmatbaho tovarlarni berish va xizmatlar ko'rsatish zarurligini anglatadi.

Jahon amaliyotida tashqi qarzni qisqartirishning quyidagi mexanizmlari ishlab chiqilgan:

1. Sotib olish orqali qarzni kamaytirish. Shunday qilib, qarzdor mamlakatlarga qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozorida qarzi qimmatli qog'ozlarini arzon narxda sotib olish imkoniyati beriladi.

2. Qarzni aksiyalarga almashtirish xorijiy banklarga mamlakat qarzini sanoat korporatsiyalari aksiyalariga almashtirishga ruxsat berishni o'z ichiga oladi. Bunda chet el kapitali boshqa mamlakatlar kapitalida ulush oladi, tashqi qarzi esa kamayadi.

3. Mavjud qarzi majburiyatlarini yangi majburiyatlar bilan ehtimol pastroq foiz stavkasi bilan almashtirish.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Davlatlarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirishda tashqi qarzi mablag'larini boshqarish muhim hisoblanadi. Tashqi qarzi mablag'larini boshqarish va ularning maqsadli xarajat-



lari, albatta, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning asosiy maqsadi bo'lib, tashqi qarzni boshqarish tajribasini o'rganish tavsiya etiladi.

Tadqiqot dizayni bo'yicha interpretivizm usulidan foydalanilgan va asosan miqdoriy ko'rsatkichlar tadqiq qilingan. Tadqiqotni amalga oshirilishida adabiyotlar sharhi to'liq tahlil etilgan holda ulardagi fikrlar to'liq o'rganiladi, ushbu fikrlarga asoslangan holda yo'nalishlar belgilanadi hamda tadqiqot yo'nalishi sifatida pozitivizm usuli qo'llaniladi. Tadqiqot bo'yicha statistik tahlillarni bo'yicha O'zbekiston Respublikasining davlat qarzi, tashqi va ichki qarzlari tahlil qilingan. Tahlillar bo'yicha, asosan, miqdoriy ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Tadqiqot uchun induksiya, deduksiya, analiz, sentiz va guruhlash kabi usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, tadqiqotda, asosan, xorijiy davlat olimlarining ilmiy ishlaridan andoza olinib, mamlakat tashqi qarzini boshqarish bo'yicha tahlillar qilinadi.


Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda tashqi ilmiy boshqaruv mexanizmini o'rganish, ilmiy-amaliy muammolarni hal qilish imkonini beradigan umumiy ilmiy va maxsus usullar tizimi ishning uslubiy asosini tashkil etadi. Muallifning umumlashtirishlari va xulosalarining nazariy qoidalarini ilmiy asoslash ana shu usullardan foydalanish bilan ta'minlanadi. Tahlilda ilmiy abstraksiya usuli, mantiqiy va tizimli usullardan foydalanilgan. Xalqaro moliya institutlarini tizimlashtirish uchun tasniflash usuli ishlatilgan.

Mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy monografiyalari va maqolalari, shuningdek, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon bankining ichki strategik va operatsion hujjatlari, xorijiy moliya institutlari va ilmiy-tadqiqot institutlarining iqtisodiy hisobotlari, tegishli internet saytlari materiallari, konferensiya va seminarlarning to'plamlari, hisobotlari va axborotnomalaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Davlat majburiyatlarini boshqarish va ular bilan bog'liq xavflarning oldini olishni kompleks tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy va texnologik chora-tadbirlar orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi huzurida davlat qarzigizga xizmat ko'rsatish bo'yicha kafolat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi 573-son¹ qaroriga asosan davlat qarzigizga xizmat ko'rsatish bo'yicha kafolat fondi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlangan (VM-573, 2020-y.).

Shu bilan birga, davlat qarzigizga xizmat ko'rsatishning institutsional, normativ-huquqiy holatini takomillashtirish va mustahkamlash maqsadida 2023-yil 29-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Davlat qarzi to'g'risida"gi O'RQ-836-sonli² Qonuni qabul qilindi. Davlat qarzigizga oid munosabatlar mazkur qonun bilan tartibga solinadi.



1-rasm. Davlat qarzi (mln.dollar) va uning YalMdagi ulushining dinamik o'zgarishi (%)³.

O'zbekiston Respublikasining davlat qarzi jami 2019-yilda 17 834 mln.dollarni va YalMdagi ulushi 29.8 foizni tashkil etgan bo'lib, 2017-yilda 23367 mln.dollarga o'sgan va YalMdagi ulushi 39 foizni tashkil qilgan. 2021-yilda 26 323 mln.dollarni va YalMdagi ulushi 38 foizni tashkil etgan. Umumiy miqdori o'sgan bo'lsada, YalMdagi ulushi kamaygan. Bunga sabab YalMning umumiy miqdorining o'sganligini ta'kidlashimiz mumkin. 2022-yilda davlat qarzi 29231 mln.dollarni, 2023-yilda esa bu ko'rsatkich 34925 mln.dollarni tashkil qilgan. YalMdagi ulushi bo'yicha ko'rsatkichlar mos ravishda 36.4 va 38.4 foizni tashkil qilgan.

1 <https://lex.uz>

2 <https://lex.uz>

3 [imv.uz](https://lex.uz) ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi qarzining valyuta tarkibini tahlil qilishda 2023 yildagi tashqi qarzning 62 foizini yani 21804 mln.dollar summani AQSH dollari tashkil etadi, 2164 mln.dollar ekvalent summa Yapon iyenasi to'g'ri keladi. Shuningdek, Maxsus qarz olish huquqi (SDR) bo'yicha 2 330 mln.dollar ekvalent summa to'g'ri kelmoqda hamda umumiy ulushi 7 foizni tashkil qildi. Bundan tashqari, Saudiya Arabistoni reali va boshqa valyutalar ulushi 746 mln.dollar ekvalent summa bo'lib, umumiy ulushni 2 foizini tashkil qilgan. Tahlil qilinayotgan 2019–2023-yillar bo'yicha umumiy katta ulushdagi valyuta bu AQSH dollari bo'lib qomoqda.

Joriy yilda yangilangan hisob-kitoblarga ko'ra, umumiy davlat qarzi 33,6 mlrd AQSh dollarini tashkil etishi kutilmoqda. 2024 yilda umumiy davlat qarzi 37,9 mlrd AQSh dollarigacha (yil yakuniga) oshishi prognoz qilinmoqda, bu YalMning 37 foizini tashkil etadi.

Davlat tashqi qarzi 2024-yil yakunida 31,1 mlrd AQSh dollari (YalMga nisbatan 30,4 foiz) miqdorida prognoz qilinmoqda, shundan 24,6 mlrd AQSh dollari – O'zbekiston Respublikasi nomidan va 6,5 mlrd AQSh dollari – O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida jalb qilinishi rejalashtirilgan.

2024-yilda davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha xarajatlar 48 652 mlrd so'm miqdorida (YalMga nisbatan 3,7 foiz) prognoz qilinmoqda. Shuningdek, yuqorida ta'kidlanganidek, Konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini (52,6 trln so'm) qoplash va 31,8 trln. so'm miqdoridagi asosiy qarzni so'ndirish uchun quyidagi manbalardan foydalaniladi hamda asosiy qarzni so'ndirish uchun mo'ljallangan 31,8 trln, so'm mablag'ga mos ravishda xalqaro moliya institutlarining kreditlari va yevrobondlar chiqarish orqali 31,8 trln so'm mablag' jalb qilinishi nazarda tutilgan.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasining davlat tashqi qarzining valyuta tarkibi (mln. doll. ekv.)⁴

| № | Yillar | 2020 | | 2021 | | 2022 | | 2023 | |
|---|---------------------------------------|--------|-------|--------|-------|--------|-------|--------|-------|
| | | miqdor | foiz | miqdor | foiz | miqdor | foiz | miqdor | foiz |
| I | Davlat tashqi qarzi | 21093 | 9,0% | 23582 | 90,0% | 25914 | 89,0% | 29636 | 85,0% |
| 1 | AQSH dollari | 14749 | 63,1% | 16949 | 64,0% | 19645 | 67,2% | 21804 | 62,0% |
| 2 | Yapon yenasi | 2376 | 10,2% | 2464 | 9,4% | 2105 | 7,2% | 2164 | 6,0% |
| 3 | Maxsus qarz olish huquqi (SDR) | 1979 | 8,5% | 1957 | 7,4% | 1877 | 6,4% | 2330 | 7,0% |
| 4 | Yevro | 1089 | 4,7% | 1094 | 4,2% | 1226 | 4,2% | 1393 | 4,0% |
| 5 | O'zbek so'mi | 191 | 0,8% | 415 | 1,6% | 401 | 1,4% | 547 | 2,0% |
| 6 | Xitoy yuani | 268 | 1,1% | 260 | 1,0% | 214 | 0,7% | 479 | 1,0% |
| 7 | Koreys voni | 192 | 0,8% | 183 | 0,7% | 174 | 0,6% | 174 | 0,0% |
| 8 | Saudiya Arabistoni reali va boshqalar | 250 | 1,1% | 259 | 1,0% | 271 | 0,9% | 746 | 2,0% |

Jadvalimiz bo'yicha umumiy muddatlar bo'yicha guruhlangan bo'lib, qisqava uzoq muddatli qarzlarning umumiy ma'lumotlari va dinamik o'zgarishi keltirilgan. Tashqi qarz bo'yicha tahlil qilinayotgan 2019–2023-yillar bo'yicha 1 yil muddatgacha bo'lgan qarz mavjud emas. Shuningdek, eng uzoq muddatli ya'ni 20 yil va undan ortiq muddatlardagi qarz ulushi yuqori miqdorda bo'lib, birgina 2023-yildagi qiymati 14717 mln.dollarni tashkil qilgan.

10 yildan 20 yilgacha bo'lgan qarz miqdori ham jami umumiy miqdorning sezilarni qismini tashkil etadi. 2019-yildagi ushbu muddatdagi qarz 5675 mln.dollarni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 11 347 mln.dollarga yetgan. Keyingi o'rinlarga 5 yildan 10 yilgacha muddatdagi qarzlarning jami davlat qarzlardagi ulushi 6 foizni tashkil etgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi tashqi qarz tarkibiy tahlili bo'yicha xalqaro moliya institutlaridan jalb qilingan kreditlar 16 627,0 mln.dollarni tashkil qilgan. Shundan Osiyo taraqqiyot banki 6441 mln.dollar, Jahon banki 6570 mln.dollar, Islom taraqqiyot banki 911 mln.dollar, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki 1327 mln.dollarni va boshqa XIMdan 1 385,0 mln.dollar kreditlar jalb qilingan.

4 inv.uz ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlangan.




2-jadval. O'zbekiston Respublikasining Davlat tashqi qarzi bo'yicha moliya institutlarining to'g'ri keladigan miqdorlari⁵.

| T/r | Ko'rsatkichlar nomi | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|------|--|-------|-------|-------|-------|
| 1. | Davlat tashqi qarzi, jami | 21093 | 23582 | 25914 | 29636 |
| 1.1. | Xalqaro moliya institutlari (XMI) | 10057 | 10926 | 13803 | 16627 |
| 1.2 | Osiyo taraqqiyot banki | 4985 | 5219 | 6030 | 6441 |
| 1.3 | Jahon banki | 3734 | 4327 | 5527 | 6570 |
| 1.4 | Islom taraqqiyot banki | 824 | 885 | 903 | 911 |
| 1.5 | Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki | 1 | 4 | 570 | 1321 |
| 1.6 | Boshqa XMIlar (XVJ, Qishloq xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi, «OPEK» jamg'armasi, YETTB va YEIB) | 513 | 491 | 773 | 1385 |
| 2.1 | Xorijiy hukumatlarning moliya tashkilotlari | 9291 | 10051 | 9519 | 9612 |
| 2.2 | Xitoy taraqqiyot davlat banki, Xitoy Eksimbank | 4020 | 4200 | 3965 | 3775 |
| 2.3 | Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi va boshqalar | 2376 | 2659 | 2300 | 2359 |
| 2.4 | Koreya Respublikasi Hukumatining moliya tashkilotlari | 998 | 1019 | 966 | 794 |
| 2.5 | Fransiya Hukumatining moliya tashkilotlari | 682 | 585 | 718 | 825 |
| 2.6 | Saudiya Arabistoni Hukumatining moliya tashkilotlari | 142 | 141 | 143 | 140 |
| 2.7 | Germaniya Hukumatining moliya tashkilotlari | 147 | 129 | 116 | 114 |
| 2.8 | Ispaniya Hukumatining moliya tashkilotlari | 106 | 99 | 80 | 73 |
| 2.9 | Quvayt va boshqa mamlakatlar hukumatlarining moliya tashkilotlari | 820 | 1218 | 1230 | 1531 |

Davlat tashqi qarzi qoldig'i 2022-yilda 2,4 mlrd. AQSh dollarga oshib, 2023-yilning 1-yanvardagi ko'rsatkichlari 25,9 mlrd. AQSh dollari ni ya'ni yalpi ichki mahsulotga nisbatan 32,25 foizni tashkil qildi. Shu bilan birga, Respublika nomidan jalb qilingan tashqi qarzi 19,8 mlrd. AQSh dollari tashkil qilgan bo'lib, umumiy davlat tashqi qarzining 76,5 foizini tashkil qilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining kafolati ostida jalb qilingan tashqi qarzi 6,1 mlrd. AQSh dollari ni ya'ni davlat tashqi qarzining 23,5 foizini tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yil yakuni bo'yicha jami davlat tashqi qarzining 33,4 foizi ya'ni 8,6 mlrd. AQSh dollari davlat byudjetini qo'llab-quvvatlash maqsadida sarflangan bo'lsa, 3,0 mlrd. AQSh dollari (11,6 %) elektroenergetika sanoatiga yo'naltirilgan, 2,84 mlrd. AQSh dollari (10,9%) energetika sanoatiga, jami summaning 2,54 mlrd. AQSh dollari (9,8%) qishloq va suv xo'jaligiga, 2,51 mlrd. AQSh dollari (9,7%) transport va transport infratuzilmasiga, 2,3 mlrd. AQSh dollari uy-joy kommunal xo'jaligi sohalariga yo'naltirilgan mablag'lar hissasiga to'g'ri keladi.




2-rasm. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasining dinamik o'zgarishi⁶.

⁵ imv.uz ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlangan.

⁶ stat.uz ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlangan.



Shuningdek, keyingi tahlillarda ko'rishimiz mumkinki, tashqi savdo saldosini manfiy bo'lib, import eksport hajmiga qaraganda o'sgan. 2021-yilda saldo – 88443,9 mln AQSH dollari bo'lsa, 2026-yildagi prognoz qariyb 3 barobar oshishi hamda – 23 612 mln AQSH dollari bo'lishi prognoz qilingan. 2024-yil kutilayotgan ijro ham – 16316 mln AQSH dollari bo'lishi prognoz qilingan bo'lib, valyuta kursida sezilarli tebranishlarni hamda devalvatsiya bo'lish ehtimollarini oshiradi.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi nomidan va O'zbekiston Respublikasining kafolati ostida tashqi qarzlarni jalb qilish bo'yicha chegaraviy miqdorlar (mlrd AQSH dollari)⁷.

Tashqi qarzning o'sib borishi bir paytning o'zida valyuta siyosatini barqarorligini ta'minlash zaruratini paydo qiladi. Bunda qarzni samarali boshqarish bo'yicha valyuta risklari paydo bo'lishi hamda qarzga xizmat ko'rsatish qimmatlashishi mumkin. Tashqi savdo bo'yicha tahlillarni ko'rishimiz mumkinki, tashqi savdo saldosini manfiy bo'lib, o'z navbatida, milliy valyutaning barqarorligini saqlab qolish bo'yicha muhim chora-tadbirlarni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat qarzi to'g'risida"gi Qonuni Oliy Majlis Senati tomonidan ma'qullandi. Davlat qarzi portfelini diversifikatsiya qilish va valyuta xatarini pasaytirish maqsadida davlat qarzini xorijiy valyutadagi ulushini bosqichma-bosqich pasaytirish uchun milliy valyutadagi xalqaro obligatsiyalar chiqarish amaliyoti yo'lga qo'yildi (O'RB-836, 2023)

O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq 2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasi hukumati nomidan va O'zbekiston Respublikasining kafolati ostida tashqi qarzlarni jalb qilish bo'yicha yillik imzolanadigan yangi bitimlarning cheklangan hajmi 5,0 mlrd AQSh dollari, shundan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish uchun – 2,5 mlrd. AQSh dollari, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun – 2,5 mlrd. AQSh dollari miqdorida belgilangan hamda 2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladigan davlat qimmatli qog'ozlarining cheklangan sof hajmi 25,0 trln. so'm miqdorida belgilangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishida, albatta, ichki imkoniyatlar yetishmagan taqdirda tashqi imkoniyatlardan foydalaniladi. Qolaversa, davlat qarzi, bu ichki yoki tashqi bo'lsin, ma'lum kamchiliklarga va risklarga ega. Shunday qilib, davlat qarzining samarali boshqarilmaydigan qismi iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi, degan xulosaga kelish mumkin. Ya'ni ijtimoiy qutblanishning kuchayishiga olib keladi va iqtisodiy o'sishga, shuningdek, qarz qiymatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Davlat qarzini to'lash byudjet taqchilligini oshiradi. Tashqi davlat qarzi eksport tushumlari hisobidan to'lanadi, bu esa iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Davlatning beqaror xarajatlarini qisqartirish va davlatlararo munosabatlarni to'g'rilash bilan bir qatorda, eng muhimi, soliq islohotlari orqali byudjet tuzilmasida ijobiy o'zgarishlarga erishishdir.

Tashqi davlat qarzini samarali boshqarish davlat qarzi xavfsizligini ta'minlashning zarur sharti bo'lib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Davlat qarzini boshqarish jarayonida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni jalb

⁷ imv.uz ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlangan.



etish vazifalari eng qulay sharoitlarda, eng kam xarajat va risklar bilan, davlatning to'lov qobiliyati va qarz xavfsizligini ta'minlagan holda hal etiladi hamda qarz munosabatlari ishtirokchilarining manfaatlarini muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega. Tashqi davlat qarzini boshqarish davlatning ishlab chiqilgan qarz siyosatiga asoslanadi va bozor usullaridan foydalangan holda amalga oshirilishi kerak.

Tashqi davlat qarzini boshqarishni takomillashtirish: qarz siyosatining aniqligi va samaradorligini oshirish, davlat qarzini boshqarish modelini takomillashtirish, tashqi davlat qarzi miqdori va ulushini qisqartirish hisobiga davlat qarzi tuzilmasini optimallashtirish, uzoq muddatli tashqi qarz ulushini oshirish kabilar.

Shuningdek, davlatlarda tashqi qarzni boshqarishning bir qancha usullaridan samarali foydalanish lozim:

1. Davlatlar tashqi qarzlarini moliyalashtirish uchun Jahon banki yoki Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVF) kabi ko'p tomonlama institutlardan qarz olish imkoniyatlaridan samarali foydalanish. Ushbu muassasalar xususiy kreditorlarga qaraganda pastroq foiz stavkalari va uzoqroq muddatlaridagi kreditlar taklif qiladi, bu esa mamlakatlarga o'z qarzlarini samaraliroq boshqarishda yordam beradi.

2. Davlat qarzini strategik maqsadlar uchun sarflash lozim. Albatta, qarz bo'yicha doimiy monitoring olib borish hamda mavjud risklarni hisobga olgan holda zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish.

3. Mamlakatlar o'zlarining tashqi qarzlarini to'lash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan valyuta tushumlarini yaratish uchun o'z eksportlarini ko'paytirishga e'tibor berishlari mumkin. Bunga savdo kelishuvlari orqali eksportni rag'batlantirish, infratuzilmani yaxshilash, ta'lim va texnologiyalarga sarmoya kiritish orqali erishish mumkin. Shuningdek, kelajakdagi tashqi savdo saldosi musbatga chiqarish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 29-apreldagi "Davlat qarzi to'g'risida"gi Qonuni O'RQ-836-sonli Qonuni. <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasining 2023-yildagi 25-dekabrdagi "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-886-sonli Qonuni. <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi huzurida Davlat qarzig'a xizmat ko'rsatish bo'yicha kafolat jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 573-sonli qarori. www.lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz>
5. Zeeshan M., Han J., Rehman A., Ullah I., Hussain A. & Afridi F. E. (2022). Exploring symmetric and asymmetric nexus between corruption, political instability, natural resources and economic growth in the context of Pakistan. *Resources Policy*, 78(1). <https://doi.org>
6. Uddin M., Ali M. & Masih M. (2020). Institutions, human capital and economic growth in developing countries. *Studies in Economics and Finance*, 38(2), 361–383.
7. Faura J., Simionescu M. & Gavurova B. (2022). Determinants of local government deficit: Evidence from Spanish municipalities. *Heliyon*, 8(12). <https://doi.org>
8. Agyeman G., Sakyi D. & Abayie E. (2022). External debt and economic growth in selected sub-Saharan African countries: The role of capital flight. *Research in Globalization*, 5(1). <https://doi.org/10.1016/j.resglo.2022.100091>.
9. Pienkowski A. Debt Limits and the Structure of Public Debt // *Journal of Globalization and Development*, vol. 8, no. 2, 2018, pp. 20170018. <https://doi.org/10.1515/jgd-2017-0018>.
10. Pattillo C.A., Poirson H., Ricci L.A. 2002. External Debt and Growth. SSRN 879569. Pattillo, A.C., Poirson, H., Ricci, L.A., 2002. External Debt and Growth. IMF Working Paper No. 02/69, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract/879569>.
11. Ada M.S., Agu O., Umunna G. 2016. Impact of external debt on economic growth in Nigeria: an ARDL bound testing approach. *J. Econ. Sustain. Dev.* 7 (10), 16–26.
12. Choriye F. (2021) «Davlat byudjeti daromadlarini diversifikatsiyalash masalalari», <https://journal.tsue.uz>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

